

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

MATMURATOVA NIGORA RUZMATOVNA

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQARORLASHTIRISHDA
BALIQCHILIK SANOATINI O‘RNI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Matmuratova Nigora Ruzmatovna. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatini o'rni (Xorazm viloyati misolida)	3
Матмуратова Нигора Рузматовна. Роль рыбной промышленности в стабилизации региональной экономики (на примере Хорезмской области).....	27
Matmuratova Nigora Ruzmatovna. The role of the fishing industry in stabilizing the regional economy (on the example of Khorezm region).....	53
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

MATMURATOVA NIGORA RUZMATOVNA

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQARORLASHTIRISHDA
BALIQCHILIK SANOATINI O‘RNI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5186 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muxitdinov Xudayar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____"dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi birlashgan ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon qishloq xo‘jaligida baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishga katta e‘tibor berilmoqda, uning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini ta‘minlash maqsadida baliq mahsulotlari ayirboshlash amalga oshirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va ushbu mahsulotlarni sotish bo‘yicha qator ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Jahonda 2023-yilda akvakulturada qariyb 90,6 mln. tonna baliq ovlangan¹. Shundan kelib chiqib, zamonaviy iqtisodiy sharoitda mavjud baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish va uni samarali sotish jarayonlarini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida jahon ichki va tashqi bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan baliqchilikni rivojlantirish millionlab odamlarning iste‘mol va mehnat muvozanatini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy globallashuv sharoitida, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, bu esa mahsulot ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, xizmatlar ko‘rsatish, sotish, baliqchilik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashda innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Baliq mahsulotlari savdosini rivojlantirish, jumladan, aholining kundalik ratsionida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan baliq va baliq mahsulotlarini sotish tamoyillaridan foydalangan holda uning samaradorligini oshirish uchun xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish eng muhim masalalardan biridir. Bu borada baliqchilik sanoati rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganish, baliq mahsulotlaridan samarali foydalanish jarayonlarini tahlil qilish, eksport salohiyatini kuchaytirish, mamlakatlar o‘rtasida tovarlar almashuvini tashkil etish va boshqarish masalalariga e‘tibor berish hamda maqbul yondashuvlarni takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda baliqchilik sanoatini rivojlantirish uchun yetarli chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 134-maqsadida “qishloq xo‘jaligining yillik o‘shish sur‘atlarini kamida 5 foizga yetkazish, ya‘ni mamlakatimiz mintaqalarida baliqchilik sanoatini jadal rivojlantirish masalasi yuzasidan “2022-yilda 700 ming tonna baliq ishlab chiqarish”² lozimligi ta‘kidlab o‘tilgan. Shunday ekan, O‘zbekistonda baliqchilik sanoatini rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish ustuvor vazifa bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada Xorazm viloyatida baliqchilikni keng rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit hosil qilish, baliqchilik faoliyatining faol siyosati va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, baliq mahsulotlari yetishtirish va sotish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish, viloyatda baliqchilik tarmog‘ining holatini tahlil qilish, uni samarali amalga oshirish yuzasidan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

¹ <https://www.statista.com/statistics/272311/world-fish-production-by-fishing-and-aquaculture-since-2004/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-son Qarori, 2022-yil 13-yanvardagi “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son Qarori, 2023-yil 18-avgustdagi “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-281-son qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqada baliqchilik sanoatini rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar J.Rhodes, Danial, Hamsiah, Syahrul, S.Sukmawati, Y.Muhammad, Md Arman Hossain, Abdulla-Al-Asif, Md Abu Zafar, Md Tanvir Hossain, Md Shahin Alam, Md Ashraful Islam³, MDH olimlaridan S.A.Piliev, N.A.Sushko, O.Y.Afanaseva, A.N.Sharin, K.V.Kolonchina, O.I.Betina, G.V.Astratova, B.A.Solovev⁴ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z natijasini topgan.

Innovatsion iqtisodiyot va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida baliqchilik sanoatini rivojlantirish bilan bog‘liq jihatlar R.X.Ergashev, S.R.Xalikov, X.Beglaev, S.Yusupov, X.B.Rajapov, B.Nosirov, I.Yunusov, B.Raxmonovalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan⁵.

³ Rhodes J. The Agricultural Marketing System. – New York, 1987. - p.7., Danial, Hamsiah, Syahrul, Sukmawati S., Muhammad Yusuf. A model of fish marketing at paotere fishing ports for increasing fishermen’s income. // International Journal of Development Research Vol. 08, Issue, 04, pp.20013-20018, April, 2018. – p. 20013-20018., Md Arman Hossain, Abdulla-Al-Asif, Md Abu Zafar, Md Tanvir Hossain, Md Shahin Alam, Md Ashraful Islam. Marketing of fish and fishery products in Dinajpur and Livelihoods of the fish retailers. // International Journal of Fisheries and Aquatic Studies, 2015, 3(1). – p. 86-92.

⁴ Пилиев С.А., Гончарова Н., Косенкова Е., Маленкова О., Начинкин Д., Пигузова А. Маркетинговые исследования рынка рыбопродукции. // Маркетинг в России и за рубежом, №2, 1998., Сушко Н.А. Разработка маркетинговой стратегии восстановления и развития рыбного хозяйства. // автореферат кандидатской диссертации, Специальность ВАК РФ, 08.00.05. - М., 2015. С. 185., Афанасьева, О.Е. Маркетинг рыбных товаров: учеб.-метод. пособие. - Калининград: ФГБОУ ВО «КГТУ», 2023. – 77 с., Шарин А.Н. Проблемы применения стратегического ресурсного маркетинга в рыбном хозяйстве России. // Стратегия развития экономики, 16 (109), 2011. – с. 36-42., Рыбохозяйственный комплекс: экономика и развитие. Монография. / Под редакцией К.В.Колончина, О.И.Бетина. - М.: ВНИРО, 2022. - 368 с., Астратова Г.В. Маркетинг продовольственного рынка: концептуальный подход. - Шадринск, ПО «Илеть», 1996. - с.84., Соловьев Б.А. Маркетинг: Учебник. – М.: ИНФРА, – М., 2008. – 383 с.

⁵ Эргашев Р.Х., Халиков С.Р., Беглаев У.Х. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darслиk. – Т, ТДАУ, 2020., Беглаев У.Х. Baliqchilik хўжаликларини бошқарув механизмларини ривожлантиришнинг илмий назарий асослари. // «Globalashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash: muammo va yechimlar» respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2024-yil 15-may. - 59-62 b., Yusupov M.S. Agrosanoat integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2015. - 400 b., Rajapov X.B. Baliqchilik sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya [Matn]. / - Xorazm: Khwarezm travel, 2023. - 11 b., Nosirov B., Yunusov I., Raxmonova B. Baliqchilik iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Andijon, AndQXAI, 2020. – 285 b.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda yangi, zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda mintaqada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmayotgani dissertatsiya ishining maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishda asos sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatining o'rnini asoslash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

viloyatda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishning obyektiv zarurligini asoslash;

viloyatda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani o'rganish;

Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularni mamlakatimiz baliqchilik sanoatini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish;

mintaqada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishning bugungi holatini tahlil qilish;

mintaqaning baliqchilik tarmog'ida baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada yaxshilash bo'yicha yo'nalishlarni taklif etish;

mintaqada baliqchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mintaqada baliqchilik sanoatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini takomillashtirish;

hududda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

viloyatda baliqchilik sanoatini rivojlantirish istiqbollari belgilash.

Tadqiqot obyekti bo'lib Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan baliqchilik sanoati xo'jaliklari (fermer va dehqon xo'jaliklari) hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatining rivojlanishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, so'rov, tanlanma kuzatish, tizimli tahlil, klaster tahlil, qiyosiy tahlil, monografik yondashuv, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan "branding" va "storytelling" innovatsion yondashuvlari taklif etilgan;

viloyat hududlarida baliqchilik sanoatining yuqori (86-100 %), o'rta (70-85 %) va quyi (55-69 %) darajalarda baholash uslubiyoti takomillashtirilgan;

viloyat baliqchilik sanoatida klasterlar faoliyatini samarali tashkil etishning ixtisoslashuv va mujassamlashuv tamoyillaridan foydalanish imkoniyatlari taklif etilgan;

mintaqada baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatida baliq mahsulotlarini sotishning 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

viloyat hududlarida baliqchilik sanoatini taraqqiy qildirish yuzasidan strategik ustuvor yo‘nalishlar asoslab berilgan;

mintaqa baliqchilik sanoatida baliqchilik mahsulotlari yetishtirish usullari takomillashtirilgan;

mintaqa baliqchilik sanoatida iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari aniqlangan;

viloyatda baliqchilik sanoatini taraqqiy qildirishning reja va dasturlaridan foydalanish yo‘llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishida qo‘llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi ma‘lumotlari va internet manbalari davriy hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan mintaqada baliqchilik sanoatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, baliqchilik sanoatini taraqqiy qildirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va mintaqani baliqchilikka ixtisoslashtirish dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi, hokimliklar tomonidan baliqchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatining o‘rnini tadqiq qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan “branding” va “storytelling” innovatsion yondashuvlari bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-281-son qarorining ijrosi haqida”gi 269-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 13-iyundagi 06-15-09/5936-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi mintaqa baliqchilik xo‘jaliklarini diversifikatsiyalashga imkon berib, shu asosida baliqchilik suv havzalaridan oqilona foydalanish imkoni yaratilgan;

viloyat hududlarida baliqchilik sanoatining yuqori (86-100 %), o‘rta (70-85 %) va quyi (55-69 %) darajalarda baholash uslubiyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv

havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-281-son qarorining ijrosi haqida”gi 269-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 13-iyundagi 06-15-09/5936-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi viloyat baliqchilik hududlarini optimal baholash imkonini bergan;

viloyat baliqchilik sanoatida klasterlar faoliyatini samarali tashkil etishning ixtisoslashuv va mujassamlashuv tamoyillaridan foydalanish imkoniyatlari taklifi Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-281-son qarorining ijrosi haqida”gi 269-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 13-iyundagi 06-15-09/5936-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilish viloyat baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatida baliqchilik klasterlarini tashkil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish darajasini o‘rtacha 2-5 foizga oshirish imkonini bergan;

mintaqada baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatida baliq mahsulotlarini sotishning 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari taklifi Xorazm viloyati hokimining 2023-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustda “Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-281-son qarorining ijrosi haqida”gi 269-12-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 13-iyundagi 06-15-09/5936-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklif asosida mintaqada baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarining sotish ko‘rsatkichlarini 2030-yilgacha 1,3 barobarga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 11 ta tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirib o‘tilgan.

“Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda baliqchilik sanoatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida mintaqada baliqchilik sanoatini rivojlantirishning obyektiv zarurligi, uning me‘yoriy-huquqiy asoslari hamda baliqchilik sanoatini rivojlantirishning xorij mamlakatlari tajribalari va ularni mamlakatimiz baliqchilik sanoatini rivojlantirishda qo‘llash imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Mintaqada baliqchilik baliq ovlash va uni iste‘mol qilish uchun mas‘ul bo‘lgan sanoat turi bo‘lib hisoblanadi. Baliqchilik sanoati murakkab tarmoq bo‘lib, baliq va boshqa suv hayvonlarini ovlash, ko‘paytirish, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanadi. Baliqchilik sanoatining asosiy bo‘g‘inlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tabiiy muhitdagi baliqlarni tutish;
- tabiiy va sun‘iy suv havzalarida boshqariladigan holda mahsulot yetishtirish;
- qayta ishlash, muzlatish va konserva shaklida saqlash;
- bozorga yetkazish va sotish tizimi.

Baliqchilik tarmog‘i agrosanoat majmuasining muhim va o‘ziga xos bo‘g‘ini sifatida aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlab borish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, bandlikni oshirish va tashqi savdo salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur tarmoqni kompleks ravishda rivojlantirish, ya‘ni, sun‘iy xovuz xo‘jaliklarini yaratish, ilg‘or biotexnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish bugungi kun talabiga aylangan.

Baliqchilik ko‘plab mamlakatlarda qishloq xo‘jaligining tarkibiy qismi sifatida rivojlangan. Xususan, agroakvakultura, agroturizm, agrologistika kabi yo‘nalishlar orqali baliqchilik boshqa agrar tarmoqlar bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi. U aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, bandlik darajasini oshirish, ichki bozordagi narxlarni barqarorlashtirishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.


Fikrimizcha, mintaqada baliqchilik sanoati baliq ovlash va baliq yetishtirishga ixtisoslashadi (1-rasmga qarang).

Bu borada baliqchilik sanoati quyidagi vazifalarni bajaradi⁶:

- aholi bandligini ta‘minlaydi va turmush darajasini oshiradi;
- aholi uchun oqsilga boy oziq-ovqat yaratadi;
- infratuzilmani rivojlantirish uchun foydalaniladigan baliqlarni eksport qilish orqali valyuta olish manbai hisoblanadi;
- iqtisodiy diversifikatsiya qilishni rag‘batlantiradi, shu orqali daromadlar kelishini ko‘paytiradi hamda qishloq xo‘jaligiga qaramlikni pasaytiradi;

⁶ <https://amiduedson.medium.com/the-importance-of-the-fishing-industry-30dbbf1efa83>

- aholi bandligini ta'minlashga ko'maklashuvchi baliqni qayta ishlash tarmoqlarini ko'paytirish imkonini beradi;
- maktab va kasalxonalarni rivojlantirish uchun foydalaniladigan soliqqa tortish orqali davlat daromadlari manbai hisoblanadi;
- ozuqa-yem bilan ta'minlash orqali parrandachilik kabi boshqa tarmoqlarning yuksalishini rag'batlantiradi;
- baliq ovlash orqali sarguzasht turizmini keng targ'ib qiladi.



1-rasm. Mintaqada baliqchilik sanoati tarkibi va yo'nalishlari⁷

Mintaqani barqaror rivojlantirish maqsadlari - mintaqadagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jarayonlarni uyg'un holda rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlardir. Ular aholi farovonligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlar uchun yashash muhitini saqlab qolish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu borada u quyidagi guruhlariga ajratiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadvalga ko'ra, hududning barqaror rivojlanishi iqtisodiy yuksalishni ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ekologik holatni yaxshilash, raqamli iqtisodiy taraqqiyot, qishloq va shaharlar muvozanatini ta'minlashga asoslanadi.

Barqaror rivojlanish - bu faqat atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, kelajak avlodlar uchun yaxshi hayot yaratishga qaratilgan keng qamrovli yondashuvdir. Mintaqani barqaror rivojlantirishda baliqchilik sanoati tabiiy va sun'iy suv havzalaridan baliq, dengiz

⁷ Muallif ishlanmasi.

mahsulotlari, suv hayvonlari va suv o‘tlari kabi bioresurslarni ovlash, tashish va ularni qayta ishlash orqali oziq-ovqat, tibbiyot, texnika hamda san’at sohalarida qo‘llaniladigan mahsulotlarga aylantirish bilan shug‘ullanadigan iqtisodiyot tarmog‘idir⁸.

1-jadval

Mintaqani barqaror rivojlantirish o‘z maqsadlari⁹

№	Maqsad nomi	Izoh	Asosiy yo‘nalishlari
1	Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash	Barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish	Sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish
2	Ijtimoiy barqarorlik	Sifatli ta‘lim, sog‘liqni saqlash va teng imkoniyatlarni yaratish	Ta‘lim muassasalarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar
3	Atrof-muhitni muhofaza qilish	Resurslardan oqilona foydalanish, ekologik balansni saqlash	Suv va havo sofligi, o‘rmonlarni saqlash
4	Raqamli iqtisodiyot	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish	Internet tarmog‘ini kengaytirish, raqamli xizmatlar
5	Qishloq va shahar hududlarini muvozanatlash	Shahar va qishloq o‘rtasidagi farqlarni kamaytirish	Qishloq infratuzilmasini yaxshilash, shaharlarni ekologik rivojlantirish

Baliqchilik sanoati hududlarda aholi bandligini ta‘minlash va tashqi savdoni rivojlantirish bilan belgilanadi¹⁰. Xalqaro miqyosda, masalan Xitoy, Hindiston, Norvegiya kabi davlatlarda baliqchilik alohida ixtisoslashgan tarmoq sifatida e‘tirof etilib, subsidiya, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Baliqchilik mahsulotlari qiymat zanjiri doirasida bir nechta bosqichlardan o‘tadi: baliq yetishtirish → qayta ishlash → saqlash → tashish → sotish → iste‘mol qilish. Har bir bosqichda qo‘shilgan qiymat yaratiladi va iqtisodiy faol ishtirokchilar faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hududiy va milliy baliqchilik savdo tarmoqlari dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi va yashash uchun juda muhimdir. Bu baliqchilik sanoatini o‘rganishga va zarur ma‘lumotlarni to‘plashga asoslanadi. Bu chora-tadbirlar baliqchilik sohasida savdo-sotiq faoliyatlarini o‘rganish imkonini beradi.

Mintaqada baliqchilik sanoatini rivojlantirish qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tavsiflanadi. Bu esa uning me‘yoriy-huquqiy asoslarini belgilaydi. Bu borada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini yaxshilash, qulay agrobiznes muhiti va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish va kadrlar salohiyatini

⁸ https://бмэ.орг/index.php/РЫБНАЯ_ПРОМЫШЛЕННОСТЬ

⁹ Muallif ishlanmasi.

¹⁰ Матвеева А.И., Ялунина Е.Н., Коротенко В.Э. Повышение конкурентоспособности компании на мировых рынках товаров и услуг на примере рыбной промышленности. // Economy and Business: Theory and Practice, vol. 12-1 (118), 2024. - с. 154.

o'shish maqsadida turli Prezident farmonlari, qarorlari va viloyat hokimligining qator qarorlari ham qabul qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kungacha mintaqada quyidagi yo'nalishlardagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini keltirish o'rinlidir (2-jadval).

2-jadval

Mintaqada baliqchilikka oid qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot¹¹

№	Qabul qilingan hujjat nomi	Qabul qilinganligi sanasi va raqami haqida ma'lumot	Mintaqa uchun asosiy yo'nalish bo'lishi
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi	2017-yil 1-maydagi PQ-2939-son Qarori	menejment
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi	2018-yil 6-apreldagi PQ-3657-son Qarori	baliqchilik
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik sanoatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi	2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-son Qarori	baliqchilik
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi	2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni	qishloq xo'jaligi sohasi
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi	2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816-son Qarori	iqtisodiy samaradorlik
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi	2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son Qarori	baliqchilik
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi	2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni	milliy iqtisodiyot
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo'yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi	2023-yil 18-avgustdagi PQ-281-son Qarori	marketing

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Aksariyat qabul qilingan farmonlarda qator soliq o'zgarishlarini amalga oshirish belgilangan:

- 2020-yildan sun'iy suv havzalarida suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish stavkalari bo'yicha hisoblanadi (suv havzasidan olingan suv va qaytarilgan suv hajmining farqi asosida);

- kollektor va drenaj suvlaridan olingan suv resurslariga soliq solinmaydi;

- soliq solinadigan suv miqdori aslida Suv xo'jaligi vazirligining tarkibiga kiradigan tashkilotlar tomonidan belgilanadi. Agar buning iloji bo'lmasa, unda suv iste'mol qilish uchun belgilangan standartlarning 50 foiz miqdorida;

- Suv xo'jaligi vazirligi har yili baliqchilik xo'jaliklari foydalanishi mumkin bo'lgan kollektor va drenaj tarmoqlari ro'yxatini tuzadi va o'z veb-saytida e'lon qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqa iqtisodiyotini barqarorlashtirishda baliqchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan "branding" va "storytelling" innovatsion yondashuvlari takomillashtirildi (3-jadvalga qarang). Chunki, mazkur tushunchalar kompaniyalar va tashkilotlarga noyob imidjni yaratish, xabardorlikni oshirish hamda mijozlar va sheriklar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishda yordam beradi.

3-jadval

Baliqchilik sanoatida "branding" va "storytelling" innovatsion yondashuvlari¹²

"Branding" yondashuvi	"Storytelling" yondashuvi
Baliqchilik sanoatida mahsulot, xizmat yoki kompaniya raqobatchilardan ajralib turishi uchun brending amalga oshiriladi. Bu brendni yaratish, saqlash, rivojlantirish va tan olishga qaratilgan tadbirlar bo'lib hisoblanadi. Brendlash baliqchilik xo'jaliklariga bozordagi mavqeini mustahkamlash va sotishni ko'paytirishga imkon beradi	Ma'lumot, g'oyalar, qadriyatlar va his-tuyg'ularni yetkazish uchun ishlatiladigan hikoya qilish san'ati bo'lib hisoblanadi. Bu holatlar mijozlarning faktlar va raqamlar ko'rinishida emas, ya'ni tarix shaklida taqdim etilgan ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish va tushunishga asoslanadi
Brendni joylashtirishni ishlab chiqish - raqobatchilardan qayta qurish, kompaniya resurslarini tejash va mahsulotni maqsadli auditoriyaga sotish uchun zarur bo'ladi	Marketing va reklamada hikoyalar mahsulot yoki brend atrofida o'ziga xos va jozibali hikoya yaratish uchun ishlatiladi. Bu esa maqsadli auditoriya bilan ko'proq hissiy aloqa o'rnatish, mahsulotning sodiqligi va jozibadorligini oshirish imkonini beradi
Asosiy imkoniyatlari	
Iste'molchilar eslab qolish va tanib olish oson bo'lgan noyob brend tasvirini yaratish	Mahsulot yoki brend atrofida ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish
Xaridorlarga mahsulot qiymati va undan foydalanish afzalliklarini namoyish etish	Mijozlar bilan ko'proq hissiy aloqani yaratish, ular ishtiroki va ma'lumotni eslab qolish qobiliyatini oshirish
Reklama strategiyasini ishlab chiqish	Marketing, reklama, PR, ta'lim va boshqalarda foydalanish
Brend va iste'molchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish	Ma'lumot yetkazish va tinglovchilar bilan hissiy aloqani shakllantirish

¹² Muallif ishlanmasi.

Mazkur 3-jadvalga asosan, mintaqada baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan oqilona foydalanish mumkin. Ushbu yangi yo‘nalishlar soha faoliyatida qo‘shimcha qiymat va iqtisodiy foyda keltiradi.

Ma‘lumki, jahon amaliyoti natijalariga ko‘ra, baliq va dengiz mahsulotlari oqsilning muhim manbai hisoblanadi, u oson hazm qilinadi va sog‘liqqa foydali ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu oziq-ovqat toifasi hamma uchun foydali bo‘lsa-da, turli mamlakatlarda iste‘mol darajasi o‘rtasida farqlar mavjuddir. Shu bois, jahon iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va aholi farovonligi baliq hamda tegishli baliq mahsulotlariga bo‘lgan talabni belgilaydi. Bugungi kunda eng katta iste‘molchi Xitoy hisoblanib, unda har bir kishi uchun o‘rtacha 31,9 kg. mahsulot to‘g‘ri keladi. Afrika mamlakatlari esa oxirgi o‘rinda turadi. Bu yerda aholi jon boshiga 9,1 kg baliq to‘g‘ri keladi. Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida esa mos ravishda 1 kishi 20,7 kg, 22 kg va 24,1 kg baliq mahsuloti iste‘mol qiladi.

“Xorazm viloyatini barqaror rivojlantirishda baliqchilik sanoatini taraqqiy qildirishning o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobda Xorazm viloyati baliqchilik sanoati rivojlanishining hozirgi holati tahlili, Xorazm viloyati baliqchilik sanoatida baliq va baliq mahsulotlari yetishtirishni takomillashtirish yo‘llari hamda Xorazm viloyati baliqchilik sanoatida iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishlari qarab chiqilgan.

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishga erishish, tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ekologiyani toza saqlash, aholining farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan uzviy chora-tadbirlar majmuidir.

Xorazm viloyati baliqchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Qulay iqlim sharoiti, suv resurslarining mavjudligi va mahalliy aholining talabi baliqchilikni yanada rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish zarur:

- a) suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- b) baliqchilik xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash;
- c) zamonaviy texnologiyalarni baliqchilik sanoatiga joriy etish;
- d) baliq mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish;
- e) turizmni rivojlantirish;
- j) ekologik barqarorlikni ta‘minlash;
- z) kadrlar tayyorlash.

Mazkur chora-tadbirlarning amaliy natijasi mintaqada baliqchilik tarmog‘ini taraqqiy qildirishga, insonlar ehtiyojlarini yuqori sifatli baliq mahsulotlari bilan qondirishga, yangi ish joylari ochishga xizmat qiladi. Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatining tahlilini amalga oshirishga iqtisodiy-geografik o‘rin va Markaziy Osiyo hududida joylashganlik ham ta‘sir ko‘rsatadi. Mintaqada baliqchilik faoliyati uchun mas‘ul tashkilot turli baliq turlarini, birinchi navbatda, kumush sazan, sazan va amurlarni ko‘paytirish amaliyoti bilan shug‘ullanadi. Oddiy sazan baliqlarini ko‘paytirish ushbu inkubatorlarda sun‘iy va tabiiy usullar bilan amalga oshiriladi. Bu borada dissertatsiyada Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatining SWOT tahlili amalga oshirildi (4-jadval).

Xorazm viloyatida baliqchilik sanoatining SWOT tahlili¹³

Kuchli tomonlar - Strengths	Zaif tomonlar - Weaknesses
<p>Boy suv resurslari: Xorazm viloyati suv havzalariga boy, bu esa baliqchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Amudaryo daryosi va ko'plab kanallar baliq yetishtirish uchun suv bilan ta'minlaydi.</p> <p>Geografik joylashuv: Viloyatning Markaziy Osiyo mintaqasida joylashuvi, qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatish imkoniyatini beradi.</p> <p>An'anaviy baliqchilik tajribasi: Mahalliy aholi baliqchilik bo'yicha an'anaviy tajribaga ega, bu esa sohani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.</p> <p>Mahalliy hukumatning qo'llab-quvvatlashi: Viloyat hokimligi baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlaydi va imtiyozlar beradi.</p>	<p>Suv resurslari yetishmasligi: Global iqlim o'zgarishi va Amudaryo daryosining qurishi sababli suv resurslari yetishmasligi kuzatilmoqda.</p> <p>Eskirgan texnologiyalar: Ko'pgina baliqchilik xo'jaliklari eskirgan texnologiyalardan foydalanadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.</p> <p>Qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi: Baliq mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa mahsulotning sifatini pasaytiradi.</p> <p>Marketing strategiyalarining sustligi: Baliq mahsulotlarini sotishda zamonaviy marketing strategiyalari yetarli darajada qo'llanilmaydi.</p> <p>Malakali kadrlar yetishmasligi: Baliqchilik sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali kadrlar yetishmaydi.</p>
Imkoniyatlar - Opportunities	Tahdidlar - Threats
<p>Davlat dasturlari: Baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, sohani qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini beradi.</p> <p>Xalqaro darajada aloqalar: Xalqaro kompaniya va tashkilotlar hamda sarmoyadorlar bilan aloqa o'rnatish orqali innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, malakali xodimlar tayyorlash imkonini kuchaytirishi mumkin.</p> <p>Turizmning rivojlanishi: Viloyatda turizmning rivojlanishi, mahalliy baliq mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirish imkoniyatini yaratadi.</p> <p>Onlayn savdoning rivojlanishi: Raqamlashtirish faoliyatining kuchayishi, mahsulotlarni chki va tashqi bozorlarga osonlik bilan chiqarish imkonini beradi.</p> <p>Innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi: Baliq sanoatida yangi zamonaviy texnika-texnologiyalarning qo'llanilishi mahsulot yetishtirish imkoniyatini oshiradi (masalan, bioflok, RAS).</p>	<p>Iqlim o'zgarishi: Iqlim o'zgarishi suv resurslarining kamayishiga va baliqlarning yashash muhitining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.</p> <p>Kasalliklar: Baliqlar orasida kasalliklarning tarqalishi, ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin.</p> <p>Import raqobati: Arzon import baliq mahsulotlarining kirib kelishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobatni kuchaytiradi.</p> <p>Qonunchilikdagi o'zgarishlar: Baliqchilik sohasidagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, biznes yuritish sharoitlarini yomonlashtirishi mumkin.</p> <p>Bozor narxlarining o'zgarishi: Baliq mahsulotlarining narxlaridagi o'zgarishlar, foydani kamaytirishi mumkin.</p>

¹³ Muallif ishlanmasi.

Mintaqada baliqchilik tarmog‘i sug‘orish tizimlarida baliqchilikni rivojlantirish uchun ko‘pgina yo‘nalishlarga ega bo‘ladi (5-jadval).

5-jadval

Xorazm viloyatidagi mavjud tabiiy suv havzalar ro‘yxati¹⁴

T/r	Tumanlar nomi	Tabiiy suv havza nomi	Maydoni (gektar)		
1.	Bog‘ot	“Zey” ko‘li	15		
		“O‘rmonchi” ko‘li	5,9		
		“Xo‘jalik” ko‘li	4,6		
2.	Qo‘shko‘pir	“Duzlakko‘l” ko‘li	58,4		
		“A.Qurbonov hududidagi 1220, 1221 kontur” ko‘li	20,4		
		“Toshkent hududidagi 365k kontur, 1- uchastka” ko‘li	14,5		
		“Toshkent hududidagi 365k kontur 2- uchastka” ko‘li	14,7		
		“Uzunsuv” ko‘li	71,8		
		“I.Ibragimov hududidagi 151k kontur” ko‘li	92		
		“Sho‘rko‘l” ko‘li	47,3		
		“Toshket hududidagi 365k kontur, 3- uchastka” ko‘li	20,1		
		“Oxunboboyev hududidagi 310 kontur” ko‘li	3,6		
		“Bakmad” ko‘li	79,7		
		“Chegara” ko‘li	40,7		
		3.	Shovot	“Bo‘ston” ko‘li	94,8
		4.	Tuproqqal‘a	“Otbotgan” ko‘li	78,3
“Aeroport” ko‘li	18,1				
“Chegara” ko‘li	39,4				
“Ko‘k damba-1” ko‘li	26,1				
“Otbotgan” ko‘li	76,5				
“Sarimoy” ko‘li	43,9				
“Ko‘kdamba” ko‘li	15,2				
Nomsiz ko‘l	28				
“Ucho‘choq” ko‘li	4,4				
Nomsiz ko‘l	12				
“Daryoosti” ko‘li	5,9				
“Chegara” ko‘li	18,1				
5.	Hazorasp			“Sho‘rko‘l-1” ko‘li	41
		“Dunuk” ko‘li	74,14		
		“Uzun” ko‘li	61,1		
		“Ovshar-2” ko‘li	6,8		
		“Sanoat” ko‘li	7,1		
		“Muxomon” ko‘li	1,5		
		“Dunukko‘l 10” ko‘li	87,2		
		“Ovshar-1” ko‘li	5,4		
		“Sho‘rko‘l-2” ko‘li	6,8		
		“Protok” ko‘li	33,2		
6.	Xiva	“Karp” ko‘li	65,9		
		“Irdimzon” ko‘li	28,2		
		“Ko‘rk” ko‘li	64,6		
		Nomsiz ko‘l	70,2		
7.	Yangiariq	“Sho‘rko‘l” ko‘li	55,5		
	Jami	42	1558		

¹⁴ Xorazm viloyat hokimining 2023-yil 23-avgustdagi 269-12-0-Q/23-son qaroriga 1-ilova

Xorazm viloyati baliqchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. 2023-yilda respublikamizda baliq yetishtiruvchi xo‘jaliklar soni 5775 tani tashkil etgan bo‘lib, shundan 5600 ta xo‘jalik 63 ming gektar sun‘iy suv havzalarida joylashgan bo‘lsa-da, qolgan 175 ta fermer xo‘jaliklari 537 ming gektar tabiiy suv havzalarida tashkil etilgan. O‘tgan yilda sanoatdagi inkubatsiya sexlarining umumiy soni 113 taga yetdi. 270 gektar maydonda naslchilik hovuzlari ishga tushirildi. 1 gektar maydonda intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmi 3-4 baravar oshdi. Sovuq suv balig‘i turlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklar soni 24 taga yetdi. Respublikamizda baliqchilik sanoatidagi mintaqaviy loyihalar jami 241 ta bo‘lib, uning qiymati 712 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Ushbu sohada 2500 nafar yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi¹⁵. Shunday ekan, baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish bevosita tabiiy suv havzalariga ega bo‘lgan “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi viloyat boshqarmasining asosiy vazifalari qatoriga kiradi (5-jadvalga qarang).

5-jadvalda keltirilgan havzalar “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tizimidagi tashkilotlarga topshiriladigan Xorazm viloyatidagi tabiiy suv havzalariga tegishli bo‘ladi.

Shuningdek, ushbu jadval tahliliga asosan, viloyat bo‘yicha 1558 ga. maydonga teng bo‘lgan 42 ta havzalar mavjud bo‘lib, ulardan 3 tasi Bog‘ot tumaniga, 11 tasi Qo‘shko‘pir tumaniga, 1 tasi Shovot tumaniga, 12 tasi Tuproqqal’a tumaniga, 10 tasi Hazorasp tumaniga, 4 tasi Xiva tumaniga va qolgan 1 tasi esa Yangiariq tumaniga to‘g‘ri keladi.

6-jadval

Xorazm viloyatida 2015-2023-yillarda jami ovlangan baliqlar hajmi, tonna birlikda¹⁶

Hududlar nomi	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Xorazm viloyati	8457,0	8918,6	9401,0	9480,3	16021,4	21754,3	27623,0	30324,3	30933,5
Urganch shahri	-	-	-	40,0	-	16,5	34,4	146,2	11,9
Xiva shahri	-	-	-	0,4	27,5	34,4	70,0	55,6	32,8
Bog‘ot tumani	747,0	775,6	833,0	947,6	2352,2	2275,1	3049,6	3231,6	3575,9
Gurlan tumani	474,0	519,8	457,5	424,2	578,7	778,7	917,3	1023,4	1025,6
Qo‘shko‘pir tumani	588,0	623,1	1051,9	859,1	1348,9	1521,7	2598,6	3013,4	3039,5
Urganch tumani	386,0	439,6	360,9	353,9	655,7	906,3	989,3	1026,7	924,0
Hazorasp tumani	787,0	811,1	944,3	819,5	1578,6	1490,1	1 939,7	2777,4	2831,3
Tuproqqal’a tumani	-	-	-	-	-	410,7	759,9	805,8	829,9
Xonqa tumani	264,0	240,6	256,7	298,4	352,5	594,0	632,9	967,1	1015,3
Xiva tumani	1521,0	1654,5	1993,9	2156,3	3890,3	3 886,7	5417,1	5370,0	5216,8
Shovot tumani	746,0	747,1	734,7	633,3	1206,6	1115,7	1781,0	2288,3	2290,0
Yangiariq tumani	2682,0	2838,2	2576,0	2727,1	3633,9	8349,7	8926,1	8993,7	9383,7
Yangibozor tumani	262,0	269,0	192,1	220,5	396,5	374,7	507,1	625,1	756,8

¹⁵ <http://uzbekbaliqsanoat.uz/>

¹⁶ <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida baliqchilik xo'jaliklari tomonidan baliqlar ovlanib, bu holat jami ovlangan baliqlar hajmida namoyon bo'lmoqda (6-jadvalga qarang). 6-jadvalga asosan, Xorazm viloyati bo'yicha 2015-yilda 8457,0 tonna baliq ovlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilda 30933,5 tonnaga yetgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ovlangan baliqlar hajmi yillar mobaynida 3,7 marta oshgan yoki 22476,5 tonnaga ko'payganligini keltirib o'tish o'rinlidir.

Quyida keltirilgan 7-jadvalga asosan, Xorazm viloyatida 2015-2023-yillarda jami ovlangan baliqlar hajmining o'sish ko'rsatkichlarini ham hisoblash natijalari aniqlandi (7-jadvalga qarang). Bunga ko'ra, 2023-yilda 2015-yilga nisbatan baliqlar yetishtirish hajmining o'zgarishi tumanlar kesimida, ya'ni Yangiariq tumanida (6701,7 tonna) va Xiva tumanida (3695,8 tonna) yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. 2023-yilda 2015-yilga nisbatan yuqori o'zgarish sur'ati esa Qo'shko'pir tumani (5,17 marta) va Bog'ot tumani (4,79 marta) hissalariga to'g'ri kelgan.

7-jadval

Xorazm viloyatida 2015-2023-yillarda jami ovlangan baliqlar hajmining o'sish ko'rsatkichlari¹⁷

Hududlar nomi	2023-yildan 2015-yilga nisbatan o'zgarishi, t.da	2023-yildan 2015-yilga nisbatan o'zgarishi, marta
Xorazm viloyati	22476.5	3,66
Bog'ot tumani	2828.9	4,79
Gurlan tumani	551.6	2,16
Qo'shko'pir tumani	2451.5	5,17
Urganch tumani	538.0	2,39
Hazorasp tumani	2044.3	3,60
Xonqa tumani	751.3	3,85
Xiva tumani	3695.8	3,43
Shovot tumani	1544.0	3,07
Yangiariq tumani	6701.7	3,50
Yangibozor tumani	494.8	2,89

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Xorazm viloyatida baliqchilik sanoati bugungi kunda oziq-ovqat sanoati tarmog'i sifatida qaralib, undagi asosiy vazifasi baliq va boshqa dengiz mahsulotlarini ishlab chiqarish (baliqchilik va baliq yetishtirish) va qayta ishlashga qaratilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, baliq mahsulotlari uchun belgilanadigan narxlarni turli darajalarda, xususan, pastki chegaradagi narxlarni 20-25 foizga va yuqori narxlarni 10-15 foizga kamaytirish kerak. Bu bilan baliq mahsulotlariga belgilanadigan narxlarni oqilona belgilash mumkin bo'ladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, baliqchilik sanoatida bozor faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar ishlatiladi:

- baliq mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabi;

$$B_t = B_n * A_s \quad (1)$$

bunda,

B_n - baliqni iste'mol qilish me'yori;

A_s - aholining soni;

¹⁷ <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

- aholining baliq mahsulotlari bilan ta'minlanganligi;

$$T_d = \frac{H_i}{t} * 100\% \quad (2)$$

bunda, T_d - baliq mahsulotlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi;

H_i - baliq mahsulotining haqiqiy ishlab chiqarish hajmi.

t - aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan talabi.

Baliqchilik mahsulotlari uchun bozor hajmi ishlab chiqarish va savdo hajmiga asoslanadi. Shunga asosan, baliqchilik mahsulotlari bozorini o'rganish tovar hajmi, bozor ulushi va talab hajmini o'rganishga asoslanadi hamda baliqchilik mahsulotlarini sotish raqobatbardoshligini oshirish bevosita biznes tuzilmalar faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Tahlillarga asosan, baliq ovlash hajmi bo'yicha mamlakatimizda Xorazm viloyati yetakchilik qilmoqda.

Shuningdek, Xorazm viloyati baliqchilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan 260 ta baliqchilik xo'jaliklari o'rtasida onlayn anketa-so'rovi o'tkazildi. Ushbu so'rovnomada quyidagi savol yo'nalishlari taqdim qilindi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Baliqchilik xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovi natijalari va ularning asosiy yo'nalishlari¹⁸

№	Savollar yo'nalishlari	Berilgan umumiy javoblar	Berilgan javoblar natijalari	Javob bergan hududlar nomi
1	Baliqchilik xo'jaligini tashkil etilishi vaqti	1-5 yil	5 (16,6 %), 3 (10 %), 4 (13,3 %), 9 (30 %), 9 (30 %)	Tuproqqal'a tumani, Qo'shko'pir tumani, Hazorasp tumani, Yangiariq tumani, Bog'ot tumani
2	Baliq turlari soni ko'pligi	3-5 xil	sazan (32 %), moybosh (23 %), sudak (21 %), oq baliq (24 %)	Tuproqqal'a tumani, Qo'shko'pir tumani, Xiva tumani, Bog'ot tumani
